

Uzbekistan Airways vakillari “Alma Fest” festivalida ishtirok etdilar

2024 18 Sentabr

Uzbekistan Airways vakillari Olmaota shahrining kuni munosabati bilan har yili o'tkaziladigan “Alma Fest” festivalida ishtirok etdilar. Bayram tadbirida 30 mingga yaqin ishtirokchi qatnashdi. Ularning aksariyati O‘zbekiston chodiriga tashrif buyurib, u yerda respublika amaliy san’ati buyumlari ko‘rgazmasi va mamlakatning sayyoqlik salohiyati, shuningdek, aviakompaniya mahsulotlari namoyish etildi.


Mehmonlar mamlakatimiz haqida ma'lumotga ega bo'lish bilan bir qatorda, mashhur o'zbek oshxonasining taomlarini – an'anaviy palovdan tortib O'zbekistondan keltirilgan sharqona shirinliklarni tatib ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldilar.







UZBEKISTAN
AIRWAYS





UZBEKISTAN
AIRWAYS

